

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI EYE/KO'Z SO'ZI ISHTIROKIDAGI SOMATIK FRAZEOLIGIZMLARINING QIYOSIY TAHLILI

Mamajonova Mahbuba Mirzayevna

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi, dotsent

Yoqubova Gulasal Farhodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7408641>

Аннотация. Ushbu maqolada Ingliz va O'zbek tillaridagi eye/ko'z so'zlari ishtirokidagi somatik frazeologizmlar va ularning qiyosiy tahlili ko'rib chiqilgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili bir qancha misollar bilan tahlilga tortilgan. Nazariy ma'lumotlarga munosabat bildirilgan.

Калит so'zlar: somatizm, ibora, frazeologizm, frazeologiya, frazeologik birlik.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С ГЛАЗ/ГЛАЗ СЛОВО-УЧАСТИЕ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье рассматривается соматическая фразеология с участием слов глаз в английском и узбекском языках и их сравнительный анализ. Сопоставительный анализ соматических фразеологизмов английского и узбекского языков проанализирован на нескольких примерах. Теоретические данные обработаны.

Ключевые слова: соматизм, словосочетание, фразеологизм, фразеология, фразеологизм.

COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS WITH EYE/EYE WORD-PARTICIPATION IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. This article discusses somatic phraseology involving the words eye in English and Uzbek and their comparative analysis. Comparative analysis of somatic phraseological units in English and Uzbek languages is analyzed on several examples. The theoretical data have been processed.

Keywords: somatism, phrase, phraseological unit, phraseology, phraseological unit.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda dunyo tillarining o'zaro munosabat va aloqalarini, shu jumladan, frazeologizmlarni boshqa tillarda mavjud bo'lgan ekvivalentlarini qiyoslashda zamonaviy metodologik tamoyillardan foydalanish bugungi davr tildunosligining talabi hisoblanadi. Shuningdek frazeosemantik maydonlarda ishlatiladigan metoforik hamda somatik iboralarni lingvokulturologik jihatdan chuqur tahlil qilish, ularda milliy va madaniy elementlarning aks ettirilishi, o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy analiz qilish ham zamonaviy tilshunoslikning muhim masalasi bo'lib bormoqda.

Har bir tilning frazeologizmi o'sha xalqning o'ziga xos urf-odatları, milliy qadriyatları, dunyoqarashi hamda tadrijiy rivojlanish tarixini aks ettiradi. V.A Maslovaning fikriga ko'ra "tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf- odatları, marosimlari, bayramlari, o'dob-axloqi mujassamlashgan".

ADABIYOTLAR TAHLILI

Frazeologiyaning maxsus somatik frazeologizmlar deb ataladigan maxsus qatlami borki, ularning tarkibi inson tamasidagi u yoki bu qismini bildiruvchi so'zlarni o'z ichiga oladi. Somatizm atamasi ham yunoncha "soma" so'zidan olingan bo'lib "tana" degan ma'noni degan

ma'noni anglatadi. Somatizm yoki somatik komponentli frazeologik birlik deganda insonning tana a'zolari, imo-ishoralari, mimika va yuz ifodalariga tegishli bo'lgan birliklar tushuniladi. Tilshunoslikka "somatik" atamasi F.Vakk tomonidan kiritilgan bo'lib, jahon tilshunoslaridan S.G Alekseyeva, R.M Vayntraub, R.Y Mugu, E.V Nikolina, O.A Kononova, V.P Shubina, M.N Azimova, T.N Chayko, T.N Fedulenkova somatik frazeologizmlarga oid asarlar yozishgan. O'zbek tilshunosligida Y. Pinxasov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, B.Yo'ldashev, A.Mamatov, A.Isayev, Sh.Abdullayev, Sh.Usmanov somatik frazeologik birliklar ustida o'rganish olib borishgan. Ushbu maqolamizning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillarida eye/ko'z so'zlari komponentli somatik frazeologizmlarni misollar orqali qiyosiy tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdir. Tadqiqotlarimiz natijasida shuni aniqladikki, ingliz tilida ham o'zbek tilida ham eye/ko'z komponentli frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular turlicha ma'nomunosabatlarni ifodalaydi. Ularning orasida bir qancha o'xshash birliklarni ham aniqladikki, ular ham leksikologik ham semantik jihatdan aynan bir-biriga ekvivalent bo'la oladi.

NATIJA VA UNING MUHOKAMASI

Qiyoslanayotgan har ikki tilda ko'z leksemali somatik frazeologizmlar mahsuldor hisoblanadi. Chunki insonning olamni anglashida, uni lisoniy tasvirini ongida yaratishida ko'z eng asosiy sezgi a'zolaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilida qo'llaniladigan quyidagi birliklar bunga misol bo'la oladi:

1. *Catch one's eye*(to attract or capture someone's attention) jalb qilish, e'tiborini tortish.

Misol: I was walking along with something shiny *caught my eye*. Someone had dropped their diamond wedding ring!

Yurib ketarkanman yaltiroq narsa e'tiborimni tortdi. Kimdir olmos ko'zli uzugini tushurib qo'yibdi!

2. *Turn a blind eye*(to ignore something) - e'tibor bermaslik, ko'z yumish.

Misol: I knew my son was lying to me but I *turned a blind eye* because I didn't want him to be upset.

O'g'limning yolg'on gapirayotganligini bilib turardim lekin uni xafa qilmaslik uchun bunga ko'z yumdim.

3. *To be apple of one's eye*(someone or something that is very important to someone; someone or something that they like very much) qadrli, suyuqli, aziz bo'lmoq.

Misol: I know I shouldn't pick favorites but of all my grandchildren, my first granddaughter is the *apple of my eye*.

Nabiralirimni ajratish yaxshi emasligini bilsam-da, men uchun bosh nabira qizim eng suyuqli.

4. *Have an eye for something* (to be good at noticing and appreciating something) biror narsaga qobiliyatli, mohir bo'lmoq.

Misol: My aunt *has an eye for* home decoration and always finds beautiful paintings and antiques at the flea market.

Xolam uy bezatishda mohir, har doim do'kondan ajoyib va chiroyli rang devor bo'yoqlarni topadi.

5. *Keep an (one's) eye on someone/something*(to carefully watch someone/something) ko'z-quloq bo'lmoq, qarab turmoq.

Misol: I asked my neighbor *to keep an eye on* my apartment while I'm on vacation and call me if there are any problems.

Qo'shnimizdan ta'tildaligimda uyimga ko'z-quloq bo'lib turishini va muammo tug'ilganda men bilan bog'lanishini so'radim.

6. *All eyes and ears* (attentive, staying concentrated) ehtiyotkor bo'lmoq, diqqatli bo'lmoq.

Misol: The team was *all eyes and ears* as the coach explained the challenges ahead.

Murabbiy oldindagi qiyinchiliklarni tushintirayotganida jamoa uni diqqat bilan eshitishdi

7. *Blue-eyed boy* (A person who is a favorite of those in authority; someone whose mistakes are forgiven) mansabdor shaxslarning erkatoiy farzandiga nisbatan ishlatiladi.

Example: Steve is the supervisor's *blue-eyed boy*. He doesn't really do that much work, but it doesn't seem to matter.

Stiv boshliqning arzandasi. Deyarli hech qanday topshiriq bajarmaydi lekin hech kim bunga e'tiroz bildirolmaydi.

Yuqoridagi misollarda ingliz tilida asosiy ishlatiladigan frazeologizmlar misol sifatida keltirilgan.

Yuqoridagi misollardan aniqlash mumkinki, ko'zning atrofni vizual kuzatish funksiyasi va inson uchun bebaho tana a'zosi bo'lganlik ma'nosi atrofida qurilgan somatik birliklar ularning aksariyatini tashkil qiladi. Shuningdek o'zbek tilida mavjud somatik frazeologizmlardan ham bir qancha misollar ko'rishimiz mumkin.

1. *Ko'zi-ning oqu qorasi* - eng yaqin kishisi, yakkayu yolg'izi (ko'pincha farzand haqida).

Misol: Nainki bitta shu qizi deb umrini o'tkazsa, *ko'zim-ning oqu qorasi* deb avaylasa.. o'stirsa-yu, u yuziga tik qarasa. (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»)

2. *Ko'zini yog' bosmoq*- uncha-munchani, hatto tanishlarni ham tanimaydigan (nazarga ilmaydigan) bo'lmoq.

Misol: Men *ko'zini yog' bosgan* bandalarga elanmayman, arzimni xudoga aytaman. (K. Yashin, «Hamza»)

3. *Ko'zi moshdek ochilmoq* - aqli joyiga kelmoq, ahvolni yaxshi (to'g'ri) fahmlaydigan holga kelmoq.

Misol: Haligina "otish, qirib tashlash kerak", deb bu kuchni mensimayotgan Kitayevning *ko'zi moshdek ochilib*, ahvolning nihoyatda murakkabligini fahmladi. (K. Yashin, «Hamza»)

4. *Ko'z yummoq¹* – ko'rib, bilib turib e'tibor bermaslik.

Misol: "Itoatdan bosh tortmasin..." degan mulohazada yozg'an shikoyatlarimizdan markazning *ko'z yumishi* ham ehtimoldir. (A. Qodiriy, "O'tkan kunlar")

5. *Ko'z yummoq²* –uxlamoq, uyquga ketmoq.

Misol: Kumush *ko'z yumish* o'rniga yostiqdan boshini uzdi va yerga tushkan ro'yolini o'rab, o'lturdi. (A. Qodiriy, "O'tkan kunlar")

6. *Ko'z yummoq³* – olamdan o'tmoq, o'lmoq.

Misol: Agar men bu foniy dunyodan *ko'z yumsam*, hammangiz Bobur mirzoning amrini hozirgi mening amrim kabi bajo keltirgaysiz. (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar")

Yuqoridagi misollardan ko'rish mumkinki, *eye/ko'z* somatizmlari ham kundalik hayotda ham badiiy adabiyotlar keng qo'llaniladigan faol birliklar hisoblanadi. Shuningdek ushbu misollar orqali bu turdagi somatik frazeologizmlar asosan ot+fe'l tarkibli birikmalar hisoblanadi. Semantik jihatdan analiz qilinganda

To turn a blind eye hamda *ko`z yummoq¹* iboralari aynan bir-biriga ekvivalent bo`la oladi. *To be apple of one`s eye* hamda *ko`zining oq-u qorasi* iboralari esa ham semantik jihatdan ham leksik tarkibi jihatidan ham struktural jihatidan o`zaro mos keladi deb ayta olamiz.

Turli tillardagi somatik frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish ushbu tillarning tuzilishi va tabiatini chuqur anglab yetish, o`sha tilda gapiruvchi insonlarning dunyoqarashi, fe`li, madaniyati, o`ziga xosligi, adabiyoti va san`ati haqidagi tasavvurlarimizni boyitilishiga xizmat qiladi. Ingliz va o`zbek frazeologik boyligida somatik birliklar salmoqli o`rin egallaydi hamda tilshunolar tomonidan ularni inson ruhiy kechinmalarida ta`na a`zolarining faol ishtiroki bilan izohlanadi.

REFERENCES

1. Abdulla Qodiriy "O`tkan kunlar" - www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Abdullayevna, K. N. (2022). Aphorisms in Different Language System: Linguoculturological Research. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(6), 325-328.
3. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o'zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.
4. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o'zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.
5. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
6. Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(4).
7. Oxunov, A. O. O. (2021). INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA UNDOV SO`ZLAR (INTERJECTION) NING IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 401-406.
8. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O`ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.
9. Gulyora, I. (2022). Stylistic Use of Phraseological Units in the Linguistics. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 3(6), 276-278.
10. Ismoilova, G. (2021). FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KLASSIFIKATSIYASI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).
11. Kochkorova, Z. A. (2022). THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE VERBALIZERS OF THE CONCEPT OF "WEDDING" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(6), 250-253.
12. Kuchkarova, Z. (2021). COMPARATIVE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS VERBALIZING THE CONCEPT OF " WEDDING" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).
13. Komil Yashin "Hamza" – www.ziyouz.com kutubxonasi
14. Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" – www.ziyouz.com kutubxonasi
15. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. – М.: Academia, 2004. – 204 с

16. Таджиева М. Муҳаббат ҳақидаги инглиз ва ўзбек мақолларининг семантик хусусиятлари //международные научные конференции с высшими учебными заведениями. – 2022. – Т. 2. – №. 18.03. – С. 179-185.
17. <https://uz.m.witinary.org>
18. <https://www.oysterenglish.com>